

TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAGI FAOLIYATI

Nazarov Elbek Tuxliyevich

Qarshi Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10258870>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati haqida fikr mulohazalar keltirilgan bo'lib bunda tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarni saqlash sotish yoki sotib olish kabi jarayonlar haqida tushunchalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tijorat banklari, qimmatli qog'ozlar, g'azna majburiyatlari, depozit sertifikatlari, aksiyalar, obligatsiyalar.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati olingan umumiy **bank litsenziyasi** dorasida amalga oshiriladi. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga oid operatsiyalarni amalga oshiradigan mutaxassislariga nisbatan birgina cheklash bor. Ular moliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan "qimmatbaxo kogoslarga doir operatsiyalar" kursida ukib, fond bozori mutaxassislari nomlari yozilgan malaka diplolarini olishlari kerak.

1-jadval

Bank qimmatli qog'ozlar portfelining funksiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin:


№	Funksiyalar va ularning ta'rifi
1	<i>Ishchanlik fazasidagi o'zgarishlardan qat'iy nazar bankning daromadlilikini ta'minlash:</i> berilgan kreditlar bo'yicha daromadlarning kamayishi qimmatli qog'ozlardan olingan daromad bilan qoplanishi mumkin.
2	<i>Bank ssudalari portfelidagi kredit risklarini kompensatsiyalash.</i> Bank kreditlari bo'yicha risklarni muvofiqlashtirish uchun yuqori sifatli qimmatli qog'ozlar sotib olinishi va saqlanishi mumkin.
3	<i>Geografik deversifikatsiyani ta'minlash.</i> Qimmatli qog'ozlar odatda bank kreditlari ob'ektlariga nisbatan ko'proq darajada boshqa regionlar bilan bog'liqligi (yoki umumdavlat) bank daromadlarini samarali diversifikatsiya qilish imkoniyatini yaratadi.
4	<i>Likvidlilikni ta'minlash.</i> Qimmatli qog'ozlar zaruriy naqd mablag'larni olish uchun sotilishi yoki bank tomonidan qo'shimcha fondlarning jalb qilinishida ta'minot ko'rinishida (masalan, lombard kreditlari) ishlatilishi mumkin.
5	<i>Garov sifatida foydalanish.</i> Qimmatli qog'ozlar hukumat, mahalliy boshqaruv organlarining bankdagi depozitlari saqlanishining ta'minoti ko'rinishida ishlatilishi mumkin.
6	<i>Bankni yo'qotishlardan himoyalash.</i> Bozordagi foiz stavkalarining o'zgarishi oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlardan himoyalashda foydalaniladi.
7	<i>Bank aktivlari portfelining «qayishqoq»ligini ta'minlash.</i> Joriy bozr kon'yukturasiga mos ravishda bank aktivlarini restrukturazatsiya qilish uchun investitsion qimmatli qog'ozlarni (bank kreditlariga nisbatan) tezkorlik bilan sotib olish yoki sotish mumkin.
8	<i>Bank balansi ko'rsatkichlarini talab darajasiga yetkazish.</i> Aksariyat qimmatli qog'ozlarga xos bo'lgan yuqori sifat bank balansining o'rnatilgan normativlarga mos bo'lishini ta'minlaydi.

O‘z moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida, tijorat banklar O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida ham eng yirik brokerlar va dilerlar sifatida ish yuritadi. O‘zbekistonda ko‘p tijorat banklari o‘z mablag‘larini turli xildagi moliyaviy dastaklarga quyish yo‘li bilan qimmatli qog‘ozlar portfelini shakllantiradilar. Bunda bank portfelni yuqori likvidli va yuqori daromadli fondlardan shakllantirib, aniq investitsiya siyosatni ishlab chiqadi. Bank tomonidan o‘z hisobiga amalga oshiriladigan fond qimmatli qog‘ozlari bilan dilerlik operatsiyalari keng tarqalgan bo‘lib, ularning maqsadi – qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish bahosidagi farqdan foyda olishdir.

Agarda tijorat banki brokerlik faoliyatini amalga oshirayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, uning operatsiyalari fond birjasi orqali amalga oshirilishi lozim. Buni hisobiga olib, tijorat banklarining brokerlik funksiyasi brokerlik idoralari tarmog‘i orqali amalga oshiriladi.

Qimmatli qog‘ozlari bilan operatsiyalarning afzalliklarini tushungan holda, O‘zbekiston tijorat banklari birinchilar qatorida qimmatli qog‘ozlarni milliy bozorini shakllantirish portfeliga qo‘shildilar. O‘zbekiston fond bozorida birinchi bo‘lib tijorat banklarining aksiyalari «Toshkent» Respublika fond birjasida 1994 yilda paydo bo‘lgani tasodif emas.

O‘zbekiston banklari tomonidan quyidagi qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish ruxsat etilgan.



4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra amal qilishi xuquqi mavjud qimmatli qog‘ozlar.

Tijorat banklari o‘zlarining mavqei, salohiyati hamda xodimlarini yuqori malakasi sababli, o‘z qimmatli qog‘ozlari bilan ham, boshqa emitentlarning qimmatli qog‘ozlari bilan ham turli xildagi operatsiyalarni amalga oshiradilar.

References:

1. SMS-banking, SMS (Short Message Service, ya‘ni, qisqa xabarlar xizmati) protokoli bo‘yicha bank xizmatlari ko‘rsatish

2. STK-banking, mijozning SIM-kartasi «qayta yuklanadi» va uning mobil telefonida bank xizmatlarini ko'rsatish qo'shimcha menyusi paydo bo'ladi
3. Java-banking, mijozning mobil telefoniga Java-illovalarni o'rnatish orqali GPRS protokoli bo'yicha bank xizmatlari ko'rsatish
4. F.Mullajonov "O'zbekiston Respublikasi bank tizimi" T.: O'zbekiston, 2011. -368.
5. Aliyeva, Musaffo. "Concepts of forming the management system of scientific and technological development of industrial enterprises." Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 3.3 (2023): 124-136.
6. Aliyeva, Musaffo. "The role of econometrical modeling in increasing the efficiency of the economic management mechanism of innovation processes in industrial enterprises." Евразийский журнал технологий и инноваций 1.11 (2023): 84-89.
7. Aliyeva, Musaffo. "Economic management mechanism of innovation processes in industrial enterprises." International Bulletin of Applied Science and Technology 3.11 (2023): 287-290.
8. Aliyeva, Musaffo. "Formation of management system of scientific and technological development of industrial enterprises foreign experiences and possibilities of their application in uzbekistan." Центральноеазиатский журнал образования и инноваций 2.11 Part 2 (2023): 14-20.
9. Aliyeva, Musaffo, and Farrux Qodirov. "Development of scientific and technological system of management of industrial enterprises." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 113-126.
10. Qodirov, Farrux. "Econometric modeling of medical services in the territories." International Conference on Information Science and Communications Technologies ICISCT. 2022.
11. Qodirov Farrux Ergash o'g'li. Econometric modeling of the development of medical services to the population of the region / Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. 2022/5/9. 1.1 Economical sciences.
12. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "Aholiga tibbiy xizmat kўrsatish soҳасининг келгуси ҳолатини башоратлаш." Сервис" илмий-амалий журнал (2022): 56-59.
13. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "ECONOMETRIC MODELING OF THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES TO THE POPULATION OF THE REGION." Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities 2.1.1 Economical sciences (2022).
14. Қодиров, Ф. "АҲОЛИГА ТИББИЙ ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ КЕЛГУСИ ҲОЛАТИНИ БАШОРАТЛАШ". Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2022.
15. Qodirov, F. "OPTIMUM SOLUTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF MEDICAL SERVICES IN PRIVATE CLINICS". MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI QARSHI FILIALI, 2022.